

“NAMUNAI ADABIYOTI TOJIK”DA ADABIY-TANQIDIY QARASHLARNING IFODASI

*Ulug'murod Amonov, BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
amonov_ulugmurod@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Sadridin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” tazkirasini ilmiy tahlil qilib, adibning Buxoro adabiy muhiti bilan bevosita bog'liq holda ijod qilgan Afzal Masum Pirmasti, Hayrat, Abdulqodirxo'ja Savdo (Bepul), Sabboq Buxoriy kabi ijodkorlarga adibning munosabati, ularning ijodiga, keltirilgan misollarga adabiyotshunos, tanqidchi sifatida bildirgan munosabatlarini keltirilgan. So'ng S.Ayniyning mahoratini va nomlari zikr qilingan ijodkorlarning adabiy muhitdagi o'rnini manbalar asosida tahlil qilgan. Shuningdek, XX asarning 30-yillarida Buxorodan Saudiya Arabistoniga borib muqim yashagan adib Sabboq Buxoriyning “Armug'oni Sabboq” tazkisasi haqida ham ma'lumot berib o'tgan.

Kalit so'zlar: tazkira, tazkirachilik, adabiyot tarixi, adabiy tanqidchilik, jadid adabiyoti, matnshunoslik, manbashunoslik, shoir, g'azal, qit'a, ruboiy.

ВЫРАЖЕНИЕ ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «НАМУНАИ АДАБИЁТИ ТОЖИК (ОБРАЗЦЫ ТАДЖИКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ)»

*Улугмурад Амонов, Доцент БухГПИ, доктор философских наук по
филологическим наукам, amonov_ulugmurod@mail.ru*

Аннотация: В данной статье автор научно проанализировал произведение «Намунаи адабиёти тожик Образцы таджикской литературы» Садриддина Айни, а также отношение литератора к таким писателям, как Афзал Масум Пирмасти, Хайрат, Абдулкадирходжа Савдо (Бепул), Саббоку Бухари, которые писали непосредственно в связи с бухарской литературной средой, его отношение как литературоведа и критика к их произведениям и приведённым примерам. Затем он проанализировал мастерство С. Айни и место упомянутых писателей в литературной среде на основе источников. Также в дал информацию о тазкире «Армугони Саббак» Саббака Бухари, который 30-е годы 20 века переехал из Бухары в Саудовскую Аравию для постоянного жительства.

Ключевые слова: тазкира, тазкираписание, история литературы, литературная критика, джадидская литература, текстоведение, источниковедение, поэт, газель, кит'ба, рубай.

EXPRESSION OF LITERARY-CRITICAL VIEWS IN "SAMPLE LITERATURE TAJIK"

*Ulugmurod Amonov, Associate professor of BukhSPI, doctor of philosophy in
philological sciences, amonov_ulugmurod@mail.ru*

Annotation: In this article, the author has scientifically analyzed Sadridin Aini's "Sample Tajik literature", and the attitude of the writer to writers such as Afzal Masum Pirmasti, Hayrat, Abdulkadirkhoja Savdo, Sabbok Bukhari, who created the writer in direct connection with the Bukhara literary environment. His attitude as a literary critic and critic to their works and examples is given. Then, based on sources, he analyzed Sadridin Ainyi's skills

and the place of the mentioned artists in the literary environment. Also, in the 30s of the 20th century, Sabbak Bukhari, who moved from Bukhara to Saudi Arabia, gave information about the "Armugoni Sabbak" Tazkiras.

Key words: *tazkira, tazkira culture, history of literature, literary criticism, modern literature, textual studies, source studies, poet, ghazal, rubai.*

O'zbek, tojik xalqining fuzalolari asrlar davomida ilm-fanning ko'pgina sohalari qatorida badiiy adabiyotda ham ko'pgina durdona asarlar yaratganlar. Hozirgi kunga kelib adabiyot tarixi fanida biz o'tmishda badiiy ijod bilan shig'illangan adiblarimizning nisbatan ozchiligini bilamiz desak, xato qilmaymiz. Bu gapdan so'ng adabiyot tarixidan kimlarning hayoti hayoti va ijodi bilan tanishmiz, shubhasiz, xotiramizda darrov tiklanadi. Ammo biz bilmaydigan juda ko'plab adiblarimiz borki, ularning asarlari hozirgi kunda kutubxona, muzeylarning qo'lyozmalar fondida, Sharqshunoslik ilmiy tekshirish institutida, xorij kutubxonalarda, ozroq bo'lsada, xalqimizning qo'lida, o'z tadqiqotchisini kutib yotibdi. Bunga sabab sobiq sho'rolar davlatining 70 yil davomida buyuk tarixga ega buyuk xalqimizning o'z o'tmishidan bexabar qoldirish siyosati bo'ldi. Shukr, hozirgi kunga kelib, Republikamizda o'tmish adabiy-ilmiy merosni o'rganishga davkat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda.

Buxoro azal-azaldan ilm-fanning markazi bo'lib kelgan. Bu ona zaminda yashovchi o'zbek, tojik xalqlari ikki tilda ham birday so'zlasha olganlari uchun turkiy adiblar forsiyda, tojik adiblari esa turkiy tilda ham qalam tebratganlar. Shu sababli biz ham Sadridin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasi orqali Buxoroda yashab ijod qilgan adiblarni merosiga nazar tashlamoqdamiz.

Buxoro azal-azaldan ilm-fanning markazi bo'lib kelgan. Bu ona zaminda yashovchi o'zbek, tojik xalqlari ikki tilda ham birday so'zlasha olganliklari uchun turkiy adiblar forsiyda, tojik adiblari esa turkiyda qalam tebratganlar. Buxorodan adabiyot olamiga ko'plab ijodkorlar yetishib chiqqan. Shulardan "Namunai adabiyoti tojik"da buxorolik 100 ga yaqin adiblarni keltirganligini aytishimiz mumkin.

Biz quyida "Namunai adabiyoti tojik"da tartib berilgan bir necha shoirlar haqida fikr yuritamiz.

Sadridin Ayniy "Namuna"ning 2-qismida Buxoroning mashhur adiblaridan sanalgan **Afzal Masum Pirmasti** asarlaridan namuna va adiblarning hayoti haqida shunday ma'lumotlarni keltiradi. Sadridin Ayniy Afzalning ikkita g'azalini to'laligicha keltirgan. Biz shu g'azaldan parchani keltirganmiz.

Afzal Maxdum Pirmasti Buxoriy (vafot 1334-hijriy. Az tazkira Manzumai Sadr Ziyo Buxoriy).

Allo badida jilvagar; Zilvast bahorho zi dog'i tu xashida sari "za" sina lolazorxo.

Biroq, lag'li chun, Mulat chaxonda xun zi didaxo.

Havoyi ruyi chun chulat ba dil halonda xorho

Chun man batabat eyki afzali bafan dilbari

Mador dast va gulbari, zi Afzal figarho.

Mazmuni: Qora maston, jilvagar ko'z, shu jilva ila bahorni,

Bog' birla chizibdursan siynangga lolazorni.

Firoqingda anjuman diydasidin qon oqur,

Yuzingni anbar hidi, dilga suqar tikonni

Seni dardingdan o'zga mani tazimga

Agar yuragimni qo'llaringa olib ketsang, Afzaldan fig'onlar (yig'i)

Afzal qoidadan tarix shuaroyi ahdi oxirin ast. Dar maydon xayoli duri bedili namebarat nazm va nasrro bag'oyat ravoi va sodame saroyad. Bifarmoyash amir Abdulahad "Tazkirat ul-shuaroyi" mushtgamil bar tarochi xol maosiri navista (az 1322 to 1203) har chand bilobar xatir amir dar in kitob shu'aroro sariho tanqid nakardam, sara va saqtaro dar el qator jilva dodast, mazol bod boy maosarin bisabab ahyon nomashon monadi bo'zurgi nihoda ast.

Afzal dar sol 1334 ro'z dushanba 12 zulhija dar kasabai Gajdumak dar xonai xud az tuman pirmast Buxoro vafot karda dar injo maffun shud baqirro dar mareya va tarix vafot u chand parcha she'r astki yoki az onhoro bar sabil namuna naql menamoyam:

Qit'a

Afzal on shami shabiston suxan?

Ki az u bud mahofil pur nur.

Bud azu bazm adab bo ravnas,

Bud az u incha man fan basrur ...

Mazmuni: Afzal she'rshunoslikda yuksak shoirlardan biri edi. Adabiyotning xayolot maydoniga kuchli yurak bilan chiqar edi. Nazm va nasrda qalami juda ham ravon edi. Garchi Afzal "Tazkirat ul-shuaro" (1203 yildan 1322 yilgacha)sida Amir Abdulahadni maqtagan bo'lsa-da, Amir Afzalni taqdirladi.

Afzal 1334-yil zulhijja dushanbe kuni Gajdumak mavzeidagi o'z uyida vafot etdi va shu yerda dafn etildi. Uning o'limi haqida adabiyotda ko'plab marsiyalar yozilgan. Misol tariqasida birini taqdim qilaman:

Qit'a

Afzal qorong'u kechaning yorug' shami edi,

Undan har bir qorong'u charog'on nur edi.

U bazmu kechalarda odobli va ravon edi.

Uning bir fan haqidagi fikri mantiqli edi

Qit'aning matni to'la holicha berilgan.

Ushbu ilmiy-tarixiy matndan ko'rinib turibdiki S. Ayniy 1- bor adibning vafotini aniq sanasini keltiradi. (hijriy 1334-y., milodiy 1913-y.). Shundan so'ng adibning g'azallaridan namuna keltiradi. Bu berilgan g'oyalardan Afzalning oshiqona tarzda yozgan g'azalidan namuna keltirdik. Mazkur she'ring o'zidanoq Afzalning yuksak badiiy qobiliyatli ekanini ko'ramiz

Bizning fikrimizni Ayniyni Afzalga bergan ta'rifi isbotlaydi. S. Ayniy Afzalning zamonasidagi yuksak she'rshunos ekanligini yozadi. Bu matndan biz Afzalning adabiyot nazariyasini chuqur bilganligini tafakkurining kuchliligidan, nasrda ham nazmda ham yaxshi ijod qilganini bilib olamiz. Bundan tashqari Ayniy Afzalni "Tazkirat ul- shuaro" tazkirasi haqida ma'lumot berib, tazkira 1788-yildan 1898-yilgacha yashagan Afzalga zamondosh adiblar ekanligini bilsak bo'ladi.

Bu matndan yana o'sha davr adabiy muhitiga amirlar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmaganini ko'ramiz. Hatto Afzalning o'zi saroy mansabdorlaridan bo'lsa ham, unga e'tibor berilmaydi.

Afzalga kim shunday e'tibor bo'lsa, oddiy xalqdan chiqqan shoir-u yozuvchilarga qanday e'tibor berilganini tasavvur qilish qiyin emas. Bundan tashqari adibning 1913-yilning 23-iyulida Gajdumakda vafot etgani aniq ko'rsatilgan. Bu ma'lumot haqida shubha tug'ilmaydi.

Tazkirada yana Afzalning vafotiga marsiyalar yozilgani aytiladiki, Buxoro adabiy muhitida uning qancha obro'si borligi bilinadi. Bu hatto keltirilgan marsiy qit'a mazmunidan ham anglashilib turibdi [6.217-221].

"Namunai adabiyot" da o'zining she'rlari bilan zamonasining iste'dodli shoiri **Hayrat** haqida ham ma'lumot berilgan. Ayniy bu shoir asarlariga boshqalarning ijodiga qaraganda ko'proq 261-272-sahifasiga qadar joy beradi. [6. 261-272]

"Muhammad Sidiq Hayrat Buxoriy- vafotash 15 Rabiul soniy shabi dushanba sol 1320 hijriy dar soniy 27 solagi".

Mazmuni: "1920-yil Rabi- ul- avval oyining 15 da (Milodiy 1902-yil 27-oktabr), Dushanba kechqurun 27 yoshida vafot etdi".

S. Ayniy Hayratning munozara tarzida yozgan bir g'azalini adibning o'z qo'l yozmasidan keltiradi.

Ey sarv be ibo, bi chamon sar kashida (i)!
Mano ki sarv qomat o'ro na didan?

Orom sarv man bo'd az jo'ybor chashm,
Ey sarv agar tu bar lab jo' or lidan !

O' sarv dilbar as tu, ravon ast dar xrom,
Tu sarv be bariu bi kunji xazidai!

O' resha dar dil astu zi dil ob mexurad
Tu resha dar gil asti voz gil damedai!

U noz parvar astu bud shoh- shox lutf,
Tu boz parvar, az du sad shox buridan!
Hayrat ziyoda mao'kard sarv nozi o':
Gashti, magar munozarai, shunidam.

Mazmuni:

Ey beibo sarv, chaman ichra o'sibsani,
Menda sarv (sarv qomat yor) borki, sen uni qomatini ko'rmabsan.

Meni sarvim ariq yoqalab sayr qila oladi,
Ey sarv, sen bo'lsang, bir joyda muqim turasan.

U sarvi dilrabo sarvi xromondir,
Sen bo'lsang, bir burchakda turasan!

Uning tomiri yuragida va shu yurakdan oziqlanadi.
Seni tomiring tuoriqda- yu, o'sha tuproqdan oziqlanasan!

Uning nozi pardozi bor shoh- shox lutf etadi,
Sen bo'lsang, bir qari-yu, ikki yuzta shoxing kesilgan.

Hayrat o'zi sarvini nozini juda ta'rifladi
Magar sen bu munozarani eshitmadingmi.

Hayratning ushbu g'azali, ma'lumotlarga qaraganda, jadid adabiyoti uslubida yozilgan. Shoir sarv daraxti bilan munozara qilib, o'z yorining bu daraxtdan chiroyli va ustunligini qiyosiy tahlil bilan asoslab beradi. Bunday g'azal klassik adabiyotida yaratilmagan desak, xato qilmaymiz. Zero lirik qahramon o'z ma'shuqasini sarv deb ta'riflaydi. Hayrat esa aksincha tik o'sadigan sarv daraxtining tik, go'zal qomatli ma'shuqasiga teng kelmaydi, deb chiroyli badiiy obraz yaratgan.

Sharq xalqlari mumtoz adabiyotida g'azal juda keng tarqalgan janr sifatida mashhurdir. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra "g'azal" – "ayolga xushomad qilmoq", "oshiqona so'z", "go'zallikni ta'rif-u tavsif qilmoq" bo'lsa-da, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib borgan. Ishq - muhabbat, tabiat tasviri, insoniylik, vatanni sevish, komillikka erishish yo'llari kabi qator mavzular g'azalda o'ziga xos badiiy mohiyat darajasida in'ikosini topdi.

Shoir Hayratning mazkur g'azalida ham biz oshiq – lirik qahramonning o'z sarvi (yori) ni go'zalligini ta'riflayotganini ko'ramiz. Lekin bu madh ma'shuqaning o'ziga aytilmasdan, ariq yoqasidagi sarv (daraxt)ga qarab, istiora, tashbeh, muqobala – qarshilantirish san'ati orqali mohiyati bilan ochib beriladi. S.Ayniy iste'dodli shoir Hayratni o'zining ustoz deb bilgan, desak ham bo'ladi. Bu haqda u tazkirasida shunday yozadi: "Hayrat, az sherik dar son faqir ast. Ammo az kamoli iste'dod va ishq adabiyot dar xurd soli ba martabai ustodi rasida bud. Faqir **a'ruz** va ba'z nozikiho san'at adabiyaro az o' omuxta budam. **Hayratki** in iste'dod mujassam dar ayom javoni (dar 27 solagi) jahon foniyro nadrud namud, va agarla az in qudrat favqulod xorqa hozor olami adab bavujud memond".

Mazmuni: "Hayrat mening birga dars tayorlaydigan sherigimdir. U yoshligidan adabiyotga qiziqqanligi sababli, yosh bo'lishiga qaramay, ustozlik darajasiga yetgan edi. Jumladan, men ham aruz ilmi va ba'zi badiiy san'atlarning nozik sirlarini undan o'rgandim. Afsuski, shunday buyuk iste'dod egasi 27 yoshida vafot etdi. Agar hayot bo'lganida favqulotda iste'dod egasi, adabiyot olamida ko'pgina qirralarni ochar edi".

Ushbu matndan ko'rinib turibdiki, Hayratning o'zi mustaqil ravishda adabiyot nazariyasini chuqur o'rganishi va bu sohaga qiziqishi tufayli, hatto saboqdoshlaridan o'zib, ustozlik darajasiga yetganligini anglab olishimiz mumkin. Ayniy tazkirasida Hayratning necha yoshda vafot etganini aytadi-yu, lekin qaerda va qachon tug'ilganini yozmaydi. Biz ushbu kemtiklikni aniqlash maqsadida Ne'matulloh Muxtaramning "Tazkirat-ush-shuaro" siga murojaat qildik. Unda "Hayrat ... Mullo Muhammad Siddiq ast mavludash (shu yerdagi jumla tushib qolgan) dar guzor po'stin do'zon Buxoroyi sharif...[N.Muhtaram. 106 bet.].

Mazmuni: "Hayrat ... Mulla Muhammad Siddiq bo'lib, (tug'ilgan joyi tushib qolgan), Buxoroyi sharifning Po'stin do'zlar guzariga tug'ilgan".

Ko'rinib turibdiki, Muhtaramning tazkirasidan jumboqni faqat bittasini topdik, ya'ni adib Buxoroning Po'stindo'zlar mahallasida tug'ilgan ekan.

Afsuski, tazkiradan ba'zi so'z va jummalarning tushib qolgani natijasida tug'ilgan yilini aniqlay olmadik, shuning uchun biz oddiy matematik yo'l bilan aniqlashga qaror qildik.

Hayratning vafot etgan 1902-yil sanadan uning yoshini ayirib tashladik. Chiqqan ssana 1875. Demak, Hayrat 1875-yilda Buxoroning Po'stindo'z guzarida tug'lib, 1902-yilda vafot etgan ekan.

Bu manbalardan tashqari Sadridдин Ayniy o'zining "Qisqacha tarjimai holim" asarida ham Hayrat haqida ma'lumot bergan. "Uning (Hayratni.U) vafotiga men shunchalar qayg'urdimki, hatto ota-onam o'lganda ham bunchalar qayg'urmagan edim. Ota-onam o'lganda ko'p yig'lamagan edim. Uning o'limiga esa faryod chekib yig'ladim. Yillar davomida dunyoda bezib xafa bo'lsam, Hayratning qabriga borib yig'lab, ko'nglimni bo'shatar edim." [S.A.1 tom 54b. 60b.]

Ushbu xotiradan Hayrat S.Ayniy uchun nafaqat saboqdoshi, balki ma'nan eng yaqin do'sti, birodari, maslakdoshi bo'lganini anglash mumkin. Vabo sabab bolaligi og'ir kechgan: avval otasidan, keyin onasidan ayrilgan, otasining vasiyatiga ko'ra o'smirligida ilm olish uchun Buxoroga kelib, mehrga, ma'naviy madadga muhtoj bo'lgan damlarda mana shu mehrni, suyanchni Hayratdan topgan. Maslakdoshi, birodarini juda erta vafoti Sadriddinga juda katta ayriliq bo'lgan. Keyinchalik ham tashvishlar, muammlardan zerikkanida, Hayratning qabr boshiga borib, yig'lab bo'shalib kelishi ularning qay darajada bir-birlariga bog'langanlarini ko'rishimiz mumkin.

S.Ayniyning "Namuna"si bizga nomi noma'lum bo'lgan ko'pgina shoirlarni hayoti va ijodini o'rganishda nihoyatda qimmatli manbadir.

Ko'pgina shoir-u adiblar qatori mazkur tazkirada Abdulqodirxo'ja Savdo (Bepul) haqida ham nihoyatda keng ma'lumot beriladi.

Savdo 1824-yilda Buxoroda tug'ilgan. [S.Aliyev. Bitilgan baytlar. 86b.] bo'lib, u dastlabki boshlang'ich ta'limni eski maktabga olib, keyinchalik madrasada tahsil oladi. U o'z zamonasining etuk kishilardan bo'lgan. S.Ayniy u haqda shunday deb yozadi:

"Abdulqodirxo'ja Savdo o'z davrining nodir kishilaridan edi, rasmiy fazlu kamoliga ilova naqqoshlik, lavhlar, rassomlar, zargarlar kabi hunarlarni bir mutaxis kabi bilar edi. Muzikada mahorati bor edi, shahsmaqom advorini bo'limlari bilan o'zlashtirgan edi va o'rniga qo'yib ijro eta olar edi. Nujum ilmiga ham biroz qiziqar edi. Davrani qizituvchi, hozirjavob, askiyachi, xushsuhbat edi. Katta va kichikka teng edi. Takabbur va mag'rurlikdan hayiqar edi. Nasrda ham, nazmda ham sodda va ravon asarlar yaratgan" ["N.A.T." 317-330.]

"Savdoning "Ne"("Yo'q") radifli g'azalini tanlab, undan namuna keltiramiz.

Ey dil! Az mizra' omid bari didi? – Ne!

Va nihol amol xud samari didi? – Ne!

Amirho dar talabi yor david, ohr!

G'ir u hech ba olam digari didi? – Ne!

Digar az man makun amid saloh, nosh!

Bar man oxir zi nasihat asri didi? – Ne!

Kosh bar said harifon zi manu, man guyam!

Dar jahon g'ayr muhabbat hunari didi? – Ne!

Mazmuni: Ey yurak! Umidingga yetdingmi? – Yo'q!
Qilgan ishingdan foyda ko'rdingmi? – Yo'q!
Yor vasfida olamni charx urib chiqding.
Va lekin yor (do'st) topdingmi? – Yo'q!!
Mendan o'zgaga qilding nasihat,
Mendek nasihatga zor kishini ko'rdingmi? – Yo'q!
Koshki dushmanlar boshiga musibat solsang, bu mening ishim desam.
Jahonda muhabbatdan boshqa hunar topdingmi? – Yo'q!

Ushbu iqtibosdan ko'rinib turibdiki, S. Ayniy Savdo haqida nihoyatda qimmatli ma'lumot bergan. Bu matn orqali biz adibning nihoyatda serqirra hunarlar va ilm: musiqashunos, astronom va adabiyotshunos xabardorligini bilib olamiz.

"Yo'q" radifli g'azalining o'zi Savdoning iste'dodli shoirligini aytib o'tiribdi. Mazkur g'azal tasavufiy yo'nalishda yo'zilgan bo'lib, inson hayotining butun mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan. Shoir nido san'atidan foydalanib, o'ziga (ey dil) murojaat qilib, bu dunyoning o'tkinchi hoyi-havaslari, tashvishlari, hayot tarzining Ollohga bo'lgan muhabbat oldida hech narsa emasligini muxlisga uqtiryapti.

S.Ayniy o'zining "Esdaliklar" asarida Savdo davlat ishlari bilan muzofotlarga chiqib turishini, shunday safarlardan birida 1873-yilda Norak ko'prigida, Vaxsh daryosiga g'arq bo'lganligini yozadi.[S.Ayniy 6-tom.96 bet.] Abdulqodirxo'ja Savdo nafaqat fors-tojik tilida, o'zbek tilida ham she'rlar yozgan. Sadriddin Ayniy esa "Namuna"da bu haqda umuman ma'lumot bermaydi. 1958-yilda nashr etilgan "Muntaxabot"ga o'zbek tilida yozilgan she'rlaridan to'rttasi (ikkita g'azal, bitta muxammas va bitta qit'a – jami 61 misra) kiritilgan.[S.Ayniy 90b.]

Shu o'rinda biz "Nozanin erur" radifli g'azalidan misol keltiramiz:

Yoy uoshi baski g'amzalari nozanin erur,
Ul g'amzalar o'qi borisi dilynishin erur.
Bemorlarga boqmasa bemor nargisi,
Bemor boqmoq endi yaqindurki qiyin erur.
Savdo demaki she'r rasolig' shoiridur;
Rasvolig'ing bahonasi bir ofarin erur.

An'ana davom etadi

Sadriddin Ayniy an'analari yillar osha davom etib kelmoqda. Shulardan biri vatan hasratini yurahi to'riga muhrlagan, umr bo'yi Vatan yodi bilan yashagan Sabboq Buxoriydir.

Sabboq Buxoriy hozirgi kunda Saudiya Arabistonining Jidda shahrida istiqomat qiladi. Shayx Abduqodir ibn Karomatullo Sabboq Buxoriy hijriy 1327-yili (milodiy 1909) Buxoroning Hammomi Kunjak guzarida tavallud topadi. U fors, turk, arab tillariga oid dastlabki bilimini Buxoro madrasasida oladi. U Payrav Sulaymoniy Qurbat, Savdoiylar G'ijduvoniylar bilan yaqin do'st bo'lib, ularning mushoiralarida ishtirok etadi. 1930-yillari vujudga kelgan gayriinsoniy siyosat uni Afg'onistonga hijrat qilmoqqa majbur etdi. U Makkai Mukarammada hind musulmonlari tomonidan bunyod etilgan "Savlatiya" madrasasida tahsil oladi, arab tilini puxta egallaydi. 1939-yildan e'tiboran turli madrasalarida mudarrislik qiladi. U fors, turk(o'zbek) va arab tillarida she'r yozadi. Shoirning "Guzidayo az ali'ori Sabboh Buxoriy" (Sabboh Buxoriyning saylanma she'rlari) kitobi mana shu uch tilda yozilgan g'azal, ruboiy, muxammas qasida va tarji'bandlardan tashkil topgan. Shoirning to'plami asosan ishq, vafo, yor mavzundagi

oshiqona she'rlardan iborat. Lekin ular orasida Vatandan judolikning og'ir izzitroblarini aks ettiruvchi she'rlar yo'q emas. "Vo so'xt" nomli tojikcha she'ri shular jumlasidandir.

Sabboq Buxoriy "Armug'oni Sabboq" nomli kitobini esdaliklar deb ataydi. Shoir ushbu kitobida badiiy adabiyot bilan bog'liq xotiralarini qalamga oladi. Kitob XIX asr oxiri-XV boshlaridagi o'zbek va tojik adabiyotiga doir ilmiy, badiiy manba sifatida qimmatlidir. "Armug'oni Sabboh" tazkira uslubida yozilgan. Muallif unda Muhtaram, Sadri Ziyozadeh, Idris Maxdum bayozadeh, Sadridin Ayniyning "Namunayi adabiyoti tojik" kitobidan foydalangan. Biroq u shoirlar va ularning asarlaridan keltirilgan ma'lumotlarni yuqorida tilga olingan tazkiralardan aynan ko'chirgan emas. Ularda mavjud ma'lumotlarni o'zi o'qigan, bilgan, manbalar asosida to'ldirgan. S. Buxoriy Hashmat, Sadri Ziyozadeh, Muhtaram kabi shoir tazkiranavislar va ularning asarlari xususida ham o'z xotiralarini bayon etadi. Ayniqsa, Muhtaramning o'tmish va zamondosh shoirlarning she'rlaridan iborat "Radoif ul-ash'ar" majmuasining taqdiri to'g'risida Sabboq bergan ma'lumotlar adabiyotshunoslik uchun engillikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sadridin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. Moskva. 1926-y.
2. Энциклопедияи совети тожик. 5 том. Душанбе – 1980.
3. Энциклопедияи адабиёти ва санъати тожик. Душанбе – 1982.
4. B. Valixojayev, R. Vohidov. "Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot". Irfon.: Dushanbe – 1978-yil.
5. Amonov U. S., Eshonqulova M. Z. Buxoroning ikki farzandi haqida mulohazalar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7383200>
6. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
7. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
8. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407.
9. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
10. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. "Academia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249-7137.2020
11. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>
12. Ulug'Murod Amonov. Sadridin ainiy is a connoisseur of tajik literature (as an example of a tajik work of exemplary literature). [Issue: Vol. 3 No. 10 \(2023\): Volume 03 Issue 10](#) | Pages: 142-146 | CrossrefDOI: <https://doi.org/10.37547/ijasr-03-10-22>. Published Date: 2023-10-17.